XALQ DEPUTATLARI SHAHRISABZ SHAHAR KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 26 - avgust VI-59-59-4-209-K/22 Shahrisabz shahar hokimligi

Shahrisabz shahar hududidagi ayrim geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011 y., 41-son, 448-modda) va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y., 41-42-son, 483-modda) hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 11-fevraldagi 08-01021-sonli hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 15-fevraldagi 15/453-sonli xulosa xatlari ijrosini ta’minlash maqsadida shahar hokimligining geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha taklifini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Shahrisabz shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Shahrisabz shahar hokimligi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasining 2022-yil 27-yanvardagi 3-sonli hududdagi 1 ta geografik obyektni qayta nomlash (Vatanimiz mustaqilligini himoya qilish yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchi Narimon Abkelyamov nomini G‘alaba

mahallasi G‘afur G‘ulom ko‘chasiga berish) haqidagi yig‘ilish bayonnomasi tasdiqlansin.

2. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 15-fevraldagi 15/453-sonli xulosasiga asosan nomi o‘zgartirilib qayta nomlanayotgan **geografik obyekt** ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar statistika bo‘limi (A.Xolmo‘minov), Davlat kadastrlari palatasi Shahrisabz shahar filiali (Y.Ismoilov), shahar qurilish bo‘limi (F.Murodov), shahar ichki ishlar bo‘limi (S.Usmonov), shahar mahalla va nuroniylar bo‘limi (B.Ro‘ziyev) hamda tegishli mutasaddi tashkilotlar geografik obyektning nomi o‘zgartirilishi munosabati bilan hujjatlar rasmiylashtirilishini mazkur qarorga muvofiqlashtirsinlar;

nomi o‘zgartirilib qayta nomlanayotgan 1 ta ko‘chani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va ularning elektron bazasini shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

4. Shahrisabz shahridagi mahalla fuqarolar yig‘inlari raislariga:

shahardagi 1 ta geografik obyektning nomi o‘zgarganligi munosabati bilan aholi o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini o‘tkazish tavsiya etilsin.

5. Davlat kadastrlari palatasi Shahrisabz shahar filiali (Y.Ismoilov) hamda shahar qurilish bo‘limi (F.Murodov)ga shahar hududidagi nomi o‘zgargan ko‘chaga ko‘rsatkich va belgilar ifodalangan peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida o‘rnatilishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur qaror Shahrisabz shahar hokimligi rasmiy saytida hamda boshqa turli ommaviy axborot vositalari orqali keng e’lon qilinishi ta’minlansin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Shahrisabz shahar Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi va ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmalariga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Shahrisabz shahar hokimi **A.Sulaymonov**

Xalq deputatlari Shahrisabz shahar
Kengashining
2022 yil 26 avgustdagi
VI-59-59-4-209-K/22-son qaroriga
1-ilova

Shahrisabz shahar hududidagi nomi o‘zgartirilib qayta nomlanayotgan geografik obyekt ma’lumoti

T/r.	Mahalla nomi	Avvalgi nomi	Yangidan nomlangan ko‘cha nomi
1.	“G‘alaba” MFY	G‘afur G‘ulom ko‘chasi	Narimon Abkelyamov ko‘chasi

Xalq deputatlari Shahrisabz shahar
Kengashining
2022 yil 26 avgustdagi
VI-59-59-4-209-K/22-son qaroriga
2-ilova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SOLIQ QO'MITASI HUZURIDAGI
KADASTR AGENTLIGI

100097, O'zbekiston, Toshkent shahri, Chopon ota ko'chasi, "M" mavze. Tel.: +99871 202-55-70, Faks: +99871 273 86 61
e-mail: info@ygk.uz, uzkadastr@exat.uz

2022 yil "14" fevral

08-01021 - son

Qashqadaryo viloyati
hokimligiga

Sizning 2022-yil 31-yanvardagi 15/221-son xatingizga.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Sizga, Qashqadaryo viloyati komissiyasi tomonidan geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo'yicha kelib tushgan takliflar Respublika toponimika xizmati tomonidan belgilangan tartibda o'rganib chiqilib, Komissiya tomonidan tegishli qaror qabul qilindi va ushbu tasdiqlangan qaror ilovaga muvofiq taqdim etilayotganligini hamda davlat reestri bazasiga tegishli o'zgartirishlar kiritilganligini ma'lum qiladi.

Ilovalar:
1. Ekspert xulosa __ - varaqda
2. Bayonnoma __ - varaqda

Direktor
o'rinbosari **T.Abdullayev**

Ijrochi: I.Ergeshov
Tel.: +99871 202-56-07
ID: 27036443
Sana: 14.02.2022

“Tasdiqlayman”
Shahrisabz shahar hokimi
_____A.Sulaymonov

Shahrisabz shahar hokimligida o‘tkazilgan yig‘ilish

BAYONNOMASI

2022-yil 27 -yanvar **3 -sonli** **Shahrisabz shahri**

Yig‘ilish raisi - **A.Sulaymonov, shahar hokimi**
Yig‘ilish kotibi - **L.Abdullayeva, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Markazi Shahrisabz shahar bo‘linmasi rahbari**

Qatnashdilar: **20 kishi**

KUN TARTIBI:

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlashda mardlarcha halok bo‘lgan Nariman Abkelyamov nomini abadiylashtirish to‘g‘risida

ESHITILDI:

L.Abdullayeva, , Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Shahrisabz shahar bo‘linmasi rahbari :

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-noyabrdagi F-4-sonli Farmonlarida mustaqilligimizni himoya qilishda mardlarcha halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar nomini abadiylashtirish, o‘zlari istiqomat qilgan mahalla va ko‘chalarga ularning nomini berish qayd etilgan. Shahrisabz shahrida tug‘ilgan va yashagan harbiy xizmatchi Abkelyamov Nariman Nosirovich Surxondaryo viloyatida bo‘lib o‘tgan voqealarda qahramonlarcha halok bo‘lgan.

Ularning nomini abadiylashtirish bo‘yicha ilgari oila a’zolaridan murojaatlar bo‘lgan. Abkelyamov Nariman Nosirovich nomini o‘zi tug‘ilib o‘sgan ko‘chaga berish to‘g‘risida tuman Mudofaa bo‘limi tomonidan ham takliflar kelib tushgan. Prezidentimizning mazkur Farmonlari ushbu takliflarni amalga oshirishga yordam beradi. Chunki Abkelyamov Nariman Nosirovich aynan mustaqilligimizni mustahkamlash yo‘lida halok bo‘lishgan.

SO‘ZGA CHIQDILAR:

U.Po‘latov, “G‘alaba” MFY raisi:

– Nariman Abkelyamov 1971-yil 22-noyabrda bizning “G‘alaba” mahallamizdagi G‘ofur G‘ulom ko‘chasida tug‘ilgan va Surxondaryo viloyatida bo‘lib o‘tgan voqelarda mustaqilligimizni himoya qilish yo‘lida qahramonlarcha halok bo‘lgan. U 1978-1988-yillarda shahrimizdagi “A.S.Pushkin” nomidagi hozirgi 3-umumta’lim maktabda o‘qigan. 1988-1991-yillarda Rossiya Federatsiyasi, Leningrad viloyati, Viborg shahridagi Aviatsiya texniglari tayyorlash bilim yurtini tamomlagan. 1991-yildan shartnoma asosida Chirchiq shahrida harbiy xizmatni davom ettirgan. 2000-yil 19-avgustda Surxondaryo viloyatida xizmat safarida bo‘lgan vaqtda mardlarcha halok bo‘lgan. 2000-yilda chop etilgan “Vatan fidoyilari” nomli kitobda uning qahramonligi ham kiritilgan.

Unga “Jasorat” medali berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 10 yilligi, 15 yilligi, 20 yilligi, 25 yilligi, 30 yilligi esdalik nishonlari bilan taqdirlangan.

Uning oila a’zolari o‘g‘illari nomini abadiylashtirish bo‘yicha mahallaga juda ko‘p murojaat qilishgan, ammo inobatga olinmagan edi. Prezidentimiz Farmonlari bizga asos bo‘ldi. Yig‘ilishimizda hozirgi G‘ofur G‘ulom ko‘chasini Nariman Abkelyamov ko‘chasi deb nomlash bo‘yicha tavsiya kiritdik.

Sultonov Azamat, shahar Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i:

– Nariman Abkelyamov mustaqilligimiz uchun halok bo‘lgan. U o‘qigan maktabda ko‘plab xotira kechalari, tadbirlar o‘tkazildi. Shon-shuhrat burchaklari tashkil etildi. Prezidentimiz Farmonlariga ko‘ra endilikda o‘zlari yashagan ko‘chalarga nomlarining berilishi juda oqilona ish bo‘ladi.

Yig‘ilish kun tartibidagi masalani muhokama qilib,

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-noyabrdagi F-4 sonli Farmoni ijro uchun, shahar ma’naviy va ma’rifiy ishlar bo‘yicha mas’ul xodim L.Abdullayevaning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “G‘alaba” mahalla fuqarolar yig‘inlari raisining shahar hokimi nomiga yozgan iltimosnomalari inobatga olinib, “G‘alaba” mahallasidagi Firdavsiy ko‘chasiga Nariman Abkelyamov nomlarini berish tavsiya qilinsin.

3.Shahar shahar ma’naviy va ma’rifiy ishlar bo‘yicha mas’ul xodim L.Abdullayeva tavsiya qilingan nomlar bo‘yicha tegishli hujjatlarni O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi ekspertizasidan o‘tkazilishi uchun Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasiga taqdim etsin.

4.Xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati (D.Yorov) taklif qilinayotgan ko‘chalar nomlarini xalq deputatlari shahar Kengashi sessiyasida ko‘rib chiqilishini tashkil etsin.

5.Ushbu yig‘ilish bayoni qarori ijrosini ta’minlash shahar hokimining shahar ma’naviy va ma’rifiy ishlar bo‘yicha mas’ul xodim L.Abdullayeva zimmasiga yuklatilsin.

Yig‘ilishni bayonlashtirdi: **L. Abdullayeva**

"TASDIQLAYMAN"

Ekspert komissiyasi raisi

T.M.Abdullayev

(imzo, f.i.sh.)

20__ yil "__"

Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida

EKSPERT XULOSASI

Qashqadaryo viloyati hokimligi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha komissiyasining 2022-yil 31-yanvardagi 15/221-sonli murojaatnomasi va unda qayd etilgan Qashqadaryo viloyati komissiyasining Shahrisabz shahridagi 1 ta ko'chani qayta nomlash bo'yicha taklifi ekspert komissiyasi tomonidan o'rganib chiqildi.

O'rganish natijalariga ko'ra, shuningdek, tegishli qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib, Ekspert komissiyasi quyidagi xulosaga keldi:

Qashqadaryo viloyati hamda Shahrisabz shahri komissiyalari tomonidan taqdim etilgan jami 1 ta geografik obyekt (ko'cha) ni Vatan mustaqilligini himoyalash yo'lida mardlarcha halok bo'lgan Narimon Abkelyamov nomi bilan qayta nomlash bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

Shahrisabz shahri

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o'rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Ko'cha	G'alaba mahallasi	G'afur G'ulom	Narimon Abkelyamov	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

Ekspert komissiyasi a'zolari:

I.M. Ergeshov (imzo)

D.N.Kamolova (imzo)

O.I.Fayziyeva (imzo)

D.D.Ro'ziqulov (imzo)

QASHQADARYO VILOYATI
SHAHRISABZ SHAHAR HOKIMLIGI
181300, Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahri, Ipak yo'li ko'chasi, 42-uy. Tel: (+99875) 521-25-44. shaxrisabz.shaxar@exat.uz

"27" январь 2022-yil №1-01/13-son Shahrisabz shahri

Viloyat hokimi o'rinbosari
R. Yuldashevga

Shahrisabz shahar hokimligi qoshidagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha shahar komissiyasi Sizga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-noyabrdagi F-4-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida mustaqilligimizni himoya qilish uchun Surxondaryo viloyatida bo'lib o'tgan voqealarda qahramonlarcha halok bo'lgan Shahrisabzlik harbiy xizmatchi Narimon Abkelyamov nomini abadiylashtirish maqsadida o'zlari tug'ilgan ko'chaga nomini berish to'g'risidagi taklifni O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi ekspertizasidan o'tkazishga amaliy yordam berishingizni so'raydi.

(Yig'ilish bayoni ilova qilinadi).

Shahrisabz shahar hokimi **A.Sulaymonov**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMLIGI

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy. Faks: (+99875) 221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2022-yil “15” 02 15/453 -sonli Qarshi shahri

Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha Shahrisabz shahar komissiyasi tomonidan taqdim etilgan takliflarga Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining XULOSASI

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 9 va 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosi yuzasidan hamda **Shahrisabz shahri** komissiyasining 2022-yil 27-yanvardagi 3-sonli yig‘ilish bayoniga ko‘ra hududdagi 1 ta geografik obyektni nomlash *(Vatanimiz mustaqilligini himoya qilish yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchi Narimon Abkelyamov nomini G‘alaba mahallasi, G‘ofur G‘ulom ko‘chasiga berish)* haqidagi takliflari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2021-yil 27-yanvardagi 15/221-sonli murojaatnomasi Respublika toponomika komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda o‘rganib chiqilib, tegishli qaror qabul qilindi. Bu haqida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 14-fevraldagi 08-01021-sonli xati orqali bildirildi.

Shuni inobatga olib, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasi tomonidan qonunga muvofiq deb topilgan nomlar ma’qullanganligini va e’tiroz yo‘qligini bildiradi. Qonun talablari asosida ish olib borib, natijasi haqida viloyat komissiyasiga ma’lum qilishingiz so‘raladi.

Kadastr agentligining xati, ekspert komissiyasining xulosasi, yig‘ilish bayonnomasi ilova qilinadi

Viloyat hokimining maslahatchisi **Z.Aminova**

Telefon: 75 221-08-21
qashqadaryo-til@yexat.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SOLIQ QO'MITASI HUZURIDAGI
KADASTR AGENTLIGI DAVLAT KADASTRLARI PALATASI
QASHQADARYO VILOYATI BOSHQARMASINING
SHAHRISABZ SHAHAR FILIALI

181305. Shahrisabz shahar Xabarlik ko'chasi 18-uy. Tel:(75) 522-21-74
E-mail: http//shahrisabz_shkadastr@umail.uz

2021 yil «27» январ
№ 4

Республика Маънавият ва маърифат маркази
Шахрисабз шаҳар булинмаси раҳбари:
Л.Абдуллаевага

Давлат кадастлар палатаси Шаҳрисабз шаҳар филиали Сизнинг филиалимизга 24.01.2022 йилдаги №4 сонли Шаҳрисабз шахар "Ғалаба" МФЙ, Ғ.Ғулом кучасида яшаган хамда мустақиллигимизни химоя қилишда қахрамонларча халок булган ҳарбий Абкелямов Нариман Носирович номини абадийлаштириш мақсадида узи истиқомат қилиб келган манзилга қахрамоннинг номини бериш туғрисидаги суровномангизга жавобан шуни ёзиб маълум қиладики, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Кучмас мулк объектларига манзиллари ягона реестрини шакллантириш ва юритиш тартиби туғрисидаги" 2018 йил 14 декабрдаги 1010-сонли қарори ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 21 ноябрдаги Ф-4-сонли фармойишига асосан мазкур куча жойлашган ҳудуд яъни Ғалаба МФЙ. Ғ.Ғулом кучаси ургапиб чиқилиб манзил узгарадиган худуднинг жойлашув схемаси тайёрланди ва жойлашув тартиби буйича юзага келган куча номини мустақиллигимизни химоя қилишда қахрамонларча ҳалок булган ҳарбий Абкелямов Нариман Носирович номини беришни мақсадга мувофиқ деб хисоблаймиз.

Филиал бошлиғи: Я.Исмоилов

Ижрочи: Н.Юлдашев

Шаҳар ҳокими, географик объектларни номлаш ва қайта номлаш масалалари бўйича шаҳар комиссияси раиси А. И.Сулаймоновга
“Ғалаба” МФЙ раиси У.Пўлатов томонидан

ИЛТИМОСНОМА

Ҳурматли Акрам Исомиддинович!

Марҳум Нариман Абкелямов маҳалламиздаги Ғафур Ғулом кўчасида туғилган. Шаҳримиздаги “А.С.Пушкин” номлиҳозирги 3-умумтаълим мактабни битирган. 1988 йил Виборг шаҳридаги авиатсия ўқув юртига кириб 1991 йил имтиёзли диплом билан тугатган. 1991 йил Чирчиқ шаҳридаги 23522-харбий авиация қисмга борт авиация техниги бўлиб харбий хизматни бошлаган. 2000 йил Сурхандарё вилоятига харбий командировка вақтига 19 август куни катта лейтенант Абкелямов Нариман Носирович хазматдошларни қутқарув операциясини олиб борилган вақтида оғир яралган ва шу йилнинг декабр ойида вафот этган.

Президентимизнинг 2021 йил 22 ноябрдаги Ф-4 сонли Фармонларида мустақиллигимизни ҳимоя қилишда мардларча ҳалок бўлган ҳарбий хизматчилар номини абадийлаштириш, ўзлари истиқомат қилган маҳалла ва кўчаларга уларнинг номини бериш кўрсатилган Нариман Абкелямов ҳам харбий хизматчилар сафида хизмат қила туриб, мустақиллигимизни ҳимоя қилишда ҳалок бўлган. Шуларни ҳисобга олиб, маҳалла фуқаролар йиғини йиғилишида “Ғафур Ғулом” кўчаси номи ўрнига Нариман Абкелямов номини бериш масаласи кўриб чиқилди.

“Ғалаба” МФЙ Сизга таклиф қилинган номни географик объектларни номлаш ва қайта номлаш шаҳар комиссияси йиғилишида тасдиқлаш учун юбормоқда.

(Йиғилиш баённомаси илова қилинади).

“Ғалаба” МФЙ раиси: **У.Пўлатов**